

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH  
TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida" 2002-yil 30-maydag'i PF-3080-son **Farmonini** va Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002-yil 6-iyundagi 200-son **qarorini** bajarish yuzasidan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash sifatini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

1. Belgilab qo'yilsinki, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti respublikaning aloqa va axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish bo'yicha bazaviy oliy ta'lif muassasasi hisoblanadi.

*(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi 350-sun qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-sun, 474-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

2. Quyidagilar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining asosiy vazifalari etib belgilansin:

*(2-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi 350-sun qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-sun, 474-modda)*

aloqa va axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish ishlarini tashkil etish, ta'lif muassasalari faoliyatini o'quv-metodik ta'minlashga hamda respublika ta'lif tizimi uchun yagona axborot-kommunikatsiya makonini yaratishga ko'maklashish;

oliy va oliy ta'lifdan keyingi ta'lif dasturlari va standartlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda, o'quv adabiyotlarini tayyorlashda qatnashish, aloqa va axborot texnologiyalari sohasida o'quv-metodik qo'llanmalar elektron kutubxonasi tizimini rivojlantirish;

xorijiy mamlakatlardan o'quv muassasalari va ilmiy markazlari bilan aloqa va axborot texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish, xizmatlar va texnologiyalarning yangi turlarini joriy etish sohasida hamkorlikni kengaytirish.

3. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2003/2004 o'quv yilidan boshlab Toshkent axborot texnologiyalari universitetida professor-o'qituvchilar tarkibining amaldagi soni doirasida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun bakalavriat dasturi bo'yicha pedagoglar tayyorlash uchun maxsus sirtqi bo'lim ochish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

4. Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga yuklangan asosiy vazifalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Universitet rektorati O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda 2002-yil oxirigacha Universitetning yangi tuzilmasini va shtatlar ro'yxatini ishlab chiqsinlar va belgilangan tartibda tasdiqlasınlar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan birgalikda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'quv-laboratoriya binolarini qurish va rekonstruksiya qilishni, ularni zamonaviy asbob-uskunalar va texnika bilan jihozlashni 2003-yildan boshlab respublika investitsiya dasturiga belgilangan tartibda kiritsinlar.

(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 28-fevraldagi 112-son qarori tahririda — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2003-y., 4-son, 42-modda)

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'quv-laboratoriya va sport-sog'lomlashtirish binolarini qurishning loyiha-smeta hujjatlari 2002-yil oxirigacha tayyorlanishini ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun 2003-yildan boshlab davlat budjeti, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi va Toshkent axborot texnologiyalari universitetining budjetdan tashqari jamg'armalari hamda qonun hujjatlariga zid bo'limgan boshqa manbalar hisobiga zarur mablag' ajratishni nazarda tutsinlar.

7. Vazirlar Mahkamasining "Oliy o'quv yurtlari talabalariga stipendiyalar to'lash tartibi va miqdorlari to'g'risida" 2001-yil 17-avgustdagi 344-son qaroriga ilovaning 8-bandidagi "va informatika" so'zlari "informatika, axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi" so'zlari bilan almashtirilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosi A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

### **Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2002-yil 7-noyabr,  
385-son

(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002-y., 21-son, 169-modda; 2003-y., 4-son, 42-modda;  
2017-y., 23-son, 474-modda)